

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “21” iyul 18-4 sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

Boshqaruv raisi

M. Avazov

tro'yxat raqami vi-20/208

2026-yil “21” avgust

**““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Korrupsiyaga qarshi kurash
menejment tizimi jarayonlari to'g'risida”gi Reglament
(yangi tahrirda)**

Toshkent – 2026

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “21” iyul 108-4 sonli qaroriga
ilova

““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari to‘g‘risida”gi Reglament

1-bob. Umumiy qoidalar

1. ““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari to‘g‘risida”gi Reglament (keyingi o‘rinlarda – Reglament) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi boshqa normativ hujjatlari, “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” ISO 37001:2025 hamda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – bank) ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Reglamentning asosiy maqsadi bankda korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi doirasidagi biznes jarayonlarni aniqlash, ularning ketma-ketligi, asosiy yo‘nalishlari va o‘zaro aloqalarini belgilashdan iboratdir.

3. Ushbu Reglament talablari bankning barcha xodimlari va mansabdor shaxslariga taa‘luqlidir.

4. Mazkur Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

samadorlik ko‘rsatkichi - korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonining samardorligini aniqlovchi o‘lchamga ega bo‘lgan ko‘rsatkich;

samaradorlik mezonlari - samaradorlik ko‘rsatkichi mos kelishi kerak bo‘lgan kattalik yoki ma‘lum diapazon;

ISO 37001:2025 standarti “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” ISO 37001:2025 xalqaro standart talabi va tavsiyalari “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari - foydalanish bo‘yicha talab va tavsiyalar”.

5. Ushbu Reglament talablarini bajarishga Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti rahbari mas‘uldir.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari ketma-ketligi va o‘zaro aloqalari

6. Bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, bank rahbariyati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi uchun **7 ta** jarayonlar bo‘yicha mas‘ullar, ularning ketma-ketligi va o‘zaro aloqalari mazkur Reglamentning 1-2-ilovalarida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi:

1-ilovada - korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari ketma-ketligi, asosiy yo'nalishlari va jarayon rahbarlari belgilangan;

2-ilovada - korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlarining o'zaro aloqalari belgilangan.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlarni rejalashtirish

7. Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlarini rejalashtirish o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- jarayonlar samarali faoliyat yuritishi uchun kerak bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni aniqlash;
- jarayondagi faoliyatlar ketma-ketligini aniqlash;
- jarayonlar samarali faoliyat yuritishi uchun kerakli bo'lgan resurslarni (infratuzilma va xodimlar) aniqlash;
- jaryonlarning samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan samaradorlik mezonlarini aniqlash.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlarni nazorat va tahlil qilish

8. Bank korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining samarali faoliyat yuritayotganligini va bank tizimini doimiy yaxshilashni amalga oshirish imkoniyatini baholash uchun kerakli ma'lumotlarni aniqlash, to'plab borish va tahlil qilish zarurdir.

9. Ushbu Reglamentning **3-chi ilovasiga** muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining har bir jarayonida tizimning samarali faoliyat yuritayotganini baholovchi samaradorlik mezonlari uchun samardorlik oralig'i (ko'rsatkichlarning yuqori va pastki chegaralari) har bir samaradorlik mezonlar bo'yicha quyidagilar aniqlanishi lozim:

- samardorlik ko'rsatkichini hisoblab chiqish usuli;
- ma'lumotlarni to'plash muddatlari;
- samaradorlik ko'rsatkichini monitoring qilish uchun javobgarlar.

10. Har bir ko'rsatkich bo'yicha javobgar mas'ul belgilangan muddatlarda jarayon samaradorlik mezonlari bo'yicha ma'lumotlarni "Jarayon ko'rsatkichlari monitoringi" formasiga (**4-chi ilova**) kiritib jarayon rahbariga taqdim etiladi.

11. Taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlili asosida jarayon rahbari samaradorlik ko'rsatkichlari tarkibiga yoki ularni hisoblab chiqish usullariga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Shuningdek, u yangi samaradorlik ko'rsatkichlari mezonlarini aniqlashi, ya'ni yangi maqsadlar qo'yishi yoki ko'rsatkichlarning pastki nuqtalarini yuqoriroq ko'tarishi mumkin.

12. Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi rahbariyat tahliliga tayyorgarlik ko'rish jarayonida har bir jarayon rahbari tahlil qilinayotgan muddatlardagi "Jarayon ko'rsatkichlari monitoringi" formalarini umumlashtirish uchun Korruptsiyaga qarshi nazorat departamentiga taqdim etishi lozim.

5-bob. Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi qo'llanilish sohasi

13. Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi "Bank xizmatlarini ko'rsatish" sohasida qo'llaniladi.

Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi bankning Bosh ofisi va Bosh ofis qoshidagi Amaliyot boshqarmasiga taalluqli hisoblanadi.

Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi doirasi bank xalqaro ISO 37001:2016 standartining barcha talablari to'laqonli bajaradi.

6-bob. Yakuniy qoidalar.

14. Mazkur Reglament bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

15. Mazkur Reglamentda belgilanmagan holatlar amaldagi qonunchilik hamda bankning ichki qoidalari talablari asosida tartibga solinadi.

16. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Reglamentga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

17. Bankning tarkibiy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Regmentda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Reglament talablari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

18. Mazkur Reglament o'z kuchini yo'qotgan deb topish, shuningdek, unga o'zgagtirish va qo'shimchalar kiritish bank Boshqaruvining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

19. Mazkur Reglament kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2024-yil 3-iyundagi 76-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBda Korruptsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlar to'g'risidagi Reglament o'z kuchini yo'qotadi.

Shanin

Eshmat




“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida
Korrupsiyaga qarshi kurash menejment
tizimi jarayonlari to'g'risidagi Reglamentiga
1-ilova.

Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari ketma-ketligi va asosiy yo'nalishlari.

№	Jarayon nomi	Jarayon rahbari	Jarayon ishtirokchisi
1	Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimini rejalashtirish va baholash jarayoni	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti	
2	Korrupsion risklarni baholash va boshqarish jarayoni	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti	
3	Bank bo'linmalarini nazorat qilish jarayoni	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti	
4	Nomzodlarni majmuaviy tekshiruvdan o'tkazish jarayoni	Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti	
5	Kontragentlar va maxsus loyihalarni majmuaviy tekshiruvdan o'tkazish jarayoni	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti	
6	Sovg'alar olish va berish, hamda tadbirlar xarajatlarini monitoring va nazorat qilish jarayoni	Ishlarni boshqarish departamenti	
7	Korrupsiya bilan bog'liq murojaatlar bilan ishlash va xizmat tekshiruvlarini amalga oshirish jarayoni	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti	

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida
Korrupsiyaga qarshi kurash menejment
tizimi jarayonlari to'g'risidagi Reglamentiga
2-ilova.**

Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlarning o'zaro aloqasi.



“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida
Korrupsiyaga qarshi kurash menejment
tizimi jarayonlari to'g'risidagi Reglamentiga
3-ilova.

Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi jarayonlari natijaviylik ko'rsatkichlari.

№	Natijaviylik mezonlari	Samaradorlik ko'rsatkichi oraliq'i		Ko'rsatkichni nazorat qilish muddati	Ko'rsatkichni nazorat qilishga javobgar
		Maqsad	Xavotirlik nuqtasi		
Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimini rejalashtirish va baholash jarayoni.					
1	Korrupsiyaga qarshi kurash doirasidagi maqsadlarning bajarilishi.	100%	90%	1 yilda 1 marotaba	Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti.
2	Korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi yillik audit dasturining bajarilishi.	100%	90%		
Korrupsion risklarni baholash va boshqarish jarayoni.					
1	Korrupsion risklar mutanosibligini kamayib borishi.	1 yilda 1 marotaba			Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti.
	Yuqori.				
	O'rta.				
	Past.				
Xodimlarni majmuaviy tekshiruvdan o'tkazish jarayoni.					
1	Xodimlarni majmuaviy tekshiruvdan to'laqonli va o'z vaqtida o'tkazilishi.	0	1 holat	Har chorakda 1 marotaba	Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti.

2	Imzolanayotgan mehnat shartnomalarda yoki ularga qo'shimchalarda korruptsiyaga qarshi kurash yuzasidan talablar mavjudligi.	100%	99%	Har chorakda 1 marotaba	Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti.
Bank filiallarini nazorat qilish jarayoni.					
1	Bank bo'linmalari tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurash siyosatini buzilish holatlari soni. <i>(har bir bo'linma uchun alohida hisob yuritiladi)</i>	0	5	1 yilda 1 marotaba	Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.
Kontragentlar va maxsus loyihalarni majmuaviy tekshiruvdan o'tkazish jarayoni.					
1	Kontragentlar va maxsus loyihalarni majmuaviy tekshiruvdan to'laonli va o'z vaqtida o'tkazilishi.	100%	99%	Har chorakda 1 marotaba	Xaridlar bo'linma boshlig'i, Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.
2	Imzolanayotgan shartnomalarda korruptsiyaga qarshi kurash yuzasidan talablar mavjudligi.	100%	99%	Har chorakda 1 marotaba	Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.
3	Xarid tartib-taomillarini o'tkazishda normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan muddatlarga rioya etilmaslik holatlari.	100%	99%	Har chorakda 1 marotaba	Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.
Sovg'alar olish va berish, hamda tadbirlar xarajatlarini monitoring va nazorat qilish jarayoni.					
1	Xodimlar tomonidan sovg'a olish va berish talablari buzilish holatlari soni.	0	5 holat	1 yilda 1 marotaba	Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.
Murojaatlar bilan ishlash va xizmat tekshiruvlarini amalga oshirish jarayoni.					
1	Ehtimoliy korruptsiya holatlar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni o'z vaqtida to'laonli o'rganish.	100%	99%	Har chorakda 1 marotaba	Korruptsiyaga qarshi nazorat departamenti.

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankida
 Korrupsiyaga qarshi kurash menejment
 tizimi jarayonlari to'g'risidagi Reglamentiga
 4-ilova.

Jarayon ko'rsatkichlari monitoringi.

№	Jarayon samaradorlik ko'rsatkichlari	Ko'rsatkich samaradorlik oralig'i (yuqori va pastki chegara)	20__ yil choraklari				Tahlil natijasi bo'yicha chora tadbirlar
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	
1	2	3	4	5	6	7	8